Mahalliy ilmiy adabiyotlarda soliq huquqining nazariy-uslubiy asoslari, jumladan, soliq huquqi normalarining xalqaro huquq bilan o'zaro ta'siri masalalari hamda ikki yoqlama soliqqa tortmaslik prinsipining mohiyati A. Jo'rayevning tadqiqotlarida yoritib berilgan [14]. Normativ-huquqiy jihatdan esa O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 6-, 357- va 358-moddalarida xalqaro soliq shartnomalarini qo'llash tartibi, soliq imtiyozlaridan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-3802378>



foydalanish shartlari hamda soliq rezidentligini tasdiqlash tartib-taomillari belgilangan [9]. Mazkur normalar amaldagi xalqaro soliq shartnomalari tizimini amalga oshirishning asosiy huquqiy vositalaridan biri hisoblanadi. Shartnomalarni tuzish, ratifikatsiya qilish va bajarish tartibi esa O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi O'RQ-518-son² Qonun bilan tartibga solinadi [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olishning xalqaro-huquqiy asoslari va O'zbekistonda qo'llash amaliyotini o'rganishda kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning uslubiy asosini qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli-huquqiy yondashuv, formal-yuridik tahlil, tarixiy-huquqiy tahlil hamda statistik kuzatuv usullari tashkil etadi. Dastlab xalqaro andozaviy konvensiyalarning tarkibiy tuzilishi va ularning xorijiy empirik tadqiqotlarda o'rganilgan iqtisodiy samaradorligi qiyosiy tahlil qilindi. Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Soliq kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi O'RQ-518-son³ Qonun normalari formal-yuridik metod asosida o'rganildi. O'zbekiston tomonidan tuzilgan amaldagi ikki tomonlama soliq shartnomalari case study usuli asosida tanlab olinib, ularning asosiy shartlari jadval shaklida umumlashtirildi. Tadqiqot yakunida olingan natijalar sintez qilinib, muammoli jihatlar aniqlandi hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ikki yoqlama soliqqa tortish tushunchasi va mohiyati. Xalqaro amaliyotda ikki yoqlama soliqqa tortishning ikki turi farqlanadi: yuridik ikki yoqlama soliqqa tortish — ayni bir soliq to'lovchiga nisbatan, ayni bir predmet va ayni bir davr uchun ikki davlat tomonidan soliq solinishi; hamda iqtisodiy ikki yoqlama soliqqa tortish — turli soliq to'lovchilarga tegishli bo'lgan, biroq ayni bir daromad manbaiga nisbatan soliq solinishi (masalan, korxona foydasiga va ushbu foydadan to'langan dividendga alohida-alohida soliq solinishi). Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, bunday holat davlatlarning soliqqa tortish vakolatlarini bir vaqtning o'zida o'zaro muvofiqlashtirmagan holda amalga oshirishi natijasida yuzaga keladi hamda xalqaro tijorat va investitsiya faoliyatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi [1].

Xalqaro-huquqiy asoslar. Davlatning soliq solish vakolati uning suverenitetining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Biroq xalqaro munosabatlar doirasida mazkur vakolat xalqaro shartnomalar orqali o'zaro kelishilgan tartibda cheklanishi mumkin. Xalqaro soliq shartnomalarining yuridik kuchi va ularni talqin qilish tartibi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining shartnomalarga halol niyat bilan rioya etish (pacta sunt servanda) prinsipiga asoslanadi. Shartnomalarni talqin etishda ularning matni, maqsadi va vazifalaridan kelib chiqish talab etiladi [2]. Demak, ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish instituti ikki bosqichli huquqiy tizimga tayanadi: umumiy xalqaro shartnomalar huquqi normalari hamda soliqqa oid ixtisoslashgan ikki tomonlama bitimlar.

Xalqaro andozaviy konvensiyalar yondashuvi. Zamonaviy ikki tomonlama soliq bitimlarining aksariyati ikki xil konseptual yondashuvdan biriga asoslanadi. Birinchi yondashuv rivojlangan, kapital eksport qiluvchi davlatlar manfaatlarini ko'proq aks ettiradi va daromadni rezidentlik davlatida soliqqa tortish huquqini kengroq belgilaydi. Ikkinchi yondashuv esa daromad manbai davlatining soliqqa tortish huquqlarini kengroq saqlab qolishga qaratilgan bo'lib, bunda qurilish maydonchalari bo'yicha doimiy muassasa tashkil etilishi uchun belgilangan muddat qisqaroq etib belgilanadi, shuningdek, xizmatlar ko'rsatish natijasida ham doimiy muassasa yuzaga kelishi alohida nazarda tutiladi [1]. Mazkur yondashuv kapital import qiluvchi, jumladan, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar manfaatlariga ko'proq mos keladi. Shu bilan birga, xorijiy empirik tadqiqotlarda qayd etilishicha, ikki tomonlama soliq bitimlarining rivojlanayotgan davlatlarga xorijiy to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar oqimini oshirishdagi samarasi bir xil emas. O'rta daromadli rivojlanayotgan davlatlarda bunday bitimlar investitsiyalar hajmining sezilarli darajada oshishiga xizmat qilgan bo'lsa, past daromadli davlatlar guruhida bunday statistik bog'liqlik aniqlanmagan [3]. Bizning fikrimizcha, ushbu xulosa O'zbekiston uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Mamlakat o'rta daromadli davlatlar toifasiga barqaror o'tib borgan sari, amaldagi shartnomalar tarmog'i orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etish samaradorligining ortishi kutiladi. Biroq mazkur bog'liqlikni O'zbekiston misolida alohida statistik tadqiqotlar asosida tasdiqlash maqsadga muvofiqdir.

2 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi O'RQ-518-son Qonun: <https://lex.uz/docs/-4193761>

3 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi O'RQ-518-son Qonun: <https://lex.uz/docs/-4193761>



Ikki tomonlama soliq bitimlari va ularni tuzish tartibi. Ikki tomonlama soliq bitimlari davlatlararo yoki hukumatlararo shartnoma shaklida tuziladi hamda muzokaralar olib borish, matnni kelishish, imzolash, ichki davlat tasdig'idan o'tkazish (ratifikatsiya qilish) va kuchga kiritish bosqichlarini o'z ichiga oluvchi murakkab yuridik-protsessual jarayon hisoblanadi. O'zbekistonda xalqaro shartnomalarni tuzish, ularni yuridik ekspertizadan o'tkazish hamda ratifikatsiya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi O'RQ-518-son⁴ Qonun bilan batafsil tartibga solingan [10]. Ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish to'g'risidagi xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mutlaq vakolatlariga kiradi. Mazkur vakolat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan [8].

Ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish usullari. Xalqaro amaliyotda ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishning uchta asosiy usuli qo'llaniladi: ozod qilish usuli, soliq krediti usuli va chegirma usuli. Ozod qilish usulida rezidentlik davlati chet elda olingan daromadni umuman soliqqa tortmaydi yoki uni soliq bazasini aniqlashda faqat progressiv stavkani belgilash maqsadida hisobga oladi. Soliq krediti usulida rezidentlik davlati o'z rezidentining butun jahon bo'yicha olgan daromadiga soliq soladi, biroq chet elda to'langan soliq summasini o'zining soliq majburiyatidan chegirib tashlashga ruxsat beradi. Chegirma usulida esa chet elda to'langan soliq faqat soliq solinadigan bazani hisoblashda xarajat sifatida chegiriladi. Shu bois ushbu usul soliq to'lovchi uchun eng kam foydali usul hisoblanadi [4].

Buni oddiy misolda ko'rsatish mumkin. Agar O'zbekiston rezidenti chet elda 100 birlik daromad olib, u yerda 15 birlik soliq to'lagan bo'lsa va O'zbekistondagi stavka bo'yicha ushbu daromaddan 20 birlik soliq hisoblansa, soliq krediti usuli qo'llanganda u O'zbekistonda faqat 5 birlik (20 – 15) qo'shimcha soliq to'laydi. Natijada umumiy soliq yuki 20 birlikdan oshmaydi. Xorijiy empirik tadqiqotlarda aniqlanishicha, rezidentlik davlati tomonidan tanlangan ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish usuli xorijiy investitsiyalar oqimiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Soliq krediti usulini qo'llovchi davlatlardan kirib kelayotgan investitsiyalar, odatda, ozod qilish usulini qo'llovchi davlatlardan kirib kelayotgan investitsiyalarga nisbatan kamroq bo'ladi, chunki soliq krediti mexanizmi manba davlati tomonidan berilgan soliq imtiyozlarining amaliy samarasini pasaytiradi [4]. Bizning nazarimizda, ushbu xulosa O'zbekiston uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Agar mamlakat xorijiy investorlarga taqdim etilayotgan soliq imtiyozlarining amaliy samaradorligini oshirishni maqsad qilsa, hamkor davlatlar bilan tuzilayotgan shartnomalarda qaysi bartaraf etish usuli qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyidagi jadvalda mazkur usullarning qiyosiy tahlili keltirilgan.

1-jadval

Ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish usullarining qiyosiy tahlili⁵

Usul	Mohiyati	Afzalliklari	Kamchiliklari
Ozod qilish usuli	Chet elda olingan daromad rezidentlik davlatida soliqqa tortilmaydi.	Sodda, ikki yoqlama soliqqa tortishni to'liq bartaraf etadi.	Rezidentlik davlati soliq bazasining qisqarishiga olib kelishi mumkin.
Soliq krediti usuli	Chet elda to'langan soliq rezidentlik davlatidagi soliqdan chegirib tashlanadi.	Soliq neytralligini ta'minlaydi, byudjet manfaatlarini muvozanatlashtiradi.	Hisob-kitob murakkab, kredit odatda cheklangan (limit) miqdorda beriladi.
Chegirma usuli	Chet elda to'langan soliq xarajat sifatida soliq bazasidan chegiriladi.	Qo'llash jihatidan eng sodda.	Ikki yoqlama soliqqa tortishni faqat qisman bartaraf etadi.

Doimiy muassasa instituti. Doimiy muassasa tushunchasi norezident korxonaning boshqa davlatda soliqqa tortiladigan tadbirkorlik faoliyati mavjudligini aniqlashning asosiy mezon hisoblanadi. U korxona tadbirkorlik faoliyatini to'liq yoki qisman amalga oshiradigan doimiy joy (filial, boshqarma, ofis, fabrika, ustaxona, tabiiy resurslarni qazib olish joyi va boshqalar), shuningdek, belgilangan muddatdan ortiq davom etadigan qurilish maydonchasi yoxud korxona nomidan shartnomalar tuzishga vakolatli qaram agent faoliyati orqali ham yuzaga kelishi mumkin. Shartnoma imtiyozlaridan foydalanish huquqiga ega shaxslarni hamda ularning faoliyati

⁴ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi O'RQ-518-son Qonun: <https://lex.uz/docs/-4193761>

⁵ Manba: Shehaj va Zaglarning 2025-yildagi tadqiqotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [4].



tavsifini aniqlashtirish rivojlanayotgan davlatlar amaliyotida alohida murakkablik kasb etishi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan [7].

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 36-moddasida doimiy muassasaning milliy ta'rifi keltirilgan. Unga ko'ra, boshqaruv joyi, filial, bo'linma, byuro, idora, ofis, fabrika, ustaxona, sex, laboratoriya, savdo shoxobchasi, kon, quduq, karyer, shuningdek, tabiiy resurslardan foydalanish uchun mo'ljallangan qurilma yoki inshoot, agar u **183 kundan** ortiq muddat davomida foydalanilgan yoki foydalanishga tayyor bo'lgan bo'lsa, doimiy muassasa deb e'tirof etiladi. Qurilish maydoni, montaj yoki yig'ish obyekti, shuningdek, xizmatlar ko'rsatish (shu jumladan, maslahat xizmatlari) faoliyati istalgan ketma-ket **12 oylik** davr mobaynida jami **183 kundan** ortiq davom etsa, bu ham doimiy muassasa tashkil etilishiga olib keladi. Bunda bir-biriga bog'liq chet el yuridik shaxslari tomonidan bo'lib-bo'lib amalga oshirilgan faoliyat davrlari muddatni hisoblashda qo'shib hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, mazkur qoida amaliyotda faoliyatni sun'iy ravishda bo'lib yuborish orqali doimiy muassasa maqomidan qochishga urinishlarning oldini olishga xizmat qiladi. Faqat tayyorgarlik yoki yordamchi xususiyatga ega bo'lgan faoliyat turlari (tovar zaxiralarini saqlash, namoyish etish, axborot yig'ish va shunga o'xshash faoliyatlar) doimiy muassasa tashkil etilishiga olib kelmaydi [9].

Rezidentlik va daromad manbai prinsiplari. Xalqaro soliq huquqida soliqqa tortish huquqini taqsimlashning ikki asosiy prinsipi mavjud: rezidentlik prinsipi (davlat o'z rezidentining butun jahon bo'yicha olgan daromadiga soliq solish huquqiga ega) va daromad manbai prinsipi (davlat o'z hududida yuzaga kelgan daromadga, daromad oluvchining rezidentligidan qat'i nazar, soliq solish huquqiga ega). Ikki davlat ayni bir shaxsni bir vaqtning o'zida o'z rezidenti deb e'tirof etganda yuzaga keladigan nizolarni hal etish uchun xalqaro amaliyotda bosqichma-bosqich qo'llaniladigan hal qiluvchi mezonlar — doimiy turar joy, hayotiy manfaatlar markazi, odatiy turar joy va fuqarolik mezonlari qo'llaniladi. Yuridik shaxslar uchun esa haqiqiy boshqaruv joyi mezonidan foydalaniladi [1]. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 34-moddasida yuridik shaxsning soliq rezidentligini belgilashda, jumladan, chet el yuridik shaxsining haqiqatda boshqariladigan joyi mezonini (ijro etuvchi organning joylashgan yeri va boshqa alomatlar) nazarda tutilgan bo'lib, bu xalqaro amaliyotga mos keladi [9].

Haqiqiy huquqqa ega bo'lgan shaxs tushunchasi. Haqiqiy huquqqa ega bo'lgan shaxs tushunchasi dividendlar, foizlar va royaltlarga nisbatan shartnomaviy imtiyozli soliq stavkalarini faqat daromadga nisbatan haqiqiy iqtisodiy huquqqa ega bo'lgan shaxslarga taqdim etish, shu orqali shartnomalardan noqonuniy foydalanish hamda vositachi (kanal) kompaniyalar orqali soliq yukini sun'iy ravishda kamaytirishning oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Muhim jihati shundaki, ushbu atamaning xalqaro shartnomalarning o'zida yagona va aniq huquqiy ta'rifi mavjud emas. Uning mazmuni, asosan, sud amaliyoti hamda rasmiy sharhlar orqali shakllantirilmoqda. Bu esa turli davlatlarda mazkur tushunchani bir xilda talqin qilishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda [6]. Amaliyotda vositachi shaxs daromaddan mustaqil foydalanish yoki uni boshqarish huquqiga ega bo'lmasa, ya'ni uni uchinchi shaxsga o'tkazishga shartnoma yoki qonun asosida majbur bo'lsa, u haqiqiy huquqqa ega shaxs sifatida e'tirof etilmaydi [6]. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 357- va 358-moddalarida xalqaro shartnomalar bo'yicha soliq imtiyozlaridan foydalanish daromadga nisbatan haqiqiy huquqqa ega bo'lgan shaxsni aniqlash sharti bilan bog'langan bo'lib, bu milliy qonunchilikning xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilganidan dalolat beradi [9].


Shartnomalardan noqonuniy foydalanish xavfi. Xalqaro shartnomalar tarmog'ining kengayishi, bir tomondan, ikki yoqlama soliqqa tortishni samarali bartaraf etishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, uchinchi davlat rezidentlarining faqat qulayroq shartnoma shartlaridan foydalanish maqsadida vositachi (kanal) kompaniyalar tashkil etishi orqali shartnomalardan noqonuniy foydalanish xavfini ham oshiradi. Tarmoq nazariyasi metodologiyasidan foydalangan yaqindagi empirik tadqiqotlarda dunyo bo'ylab amaldagi shartnomalar tahlil qilinib, potensial tavakkalli shartnomalar, ya'ni shartnomalardan noqonuniy foydalanish mexanizmlarida muhim rol o'ynovchi bitimlar aniqlangan. Tadqiqot natijalarida ayrim rivojlanayotgan davlatlarning soliq tushumlari ushbu tavakkalchiliklarga nisbatan sezilarli darajada ta'sirchan ekanligi ko'rsatilgan [5]. Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi ham o'zining xalqaro shartnomalar tarmog'ini xuddi shunday tavakkalchilik nuqtai nazaridan tahlil qilishi, ayniqsa, vositachi tuzilmalar orqali soliq yukini kamaytirishga qaratilgan urinishlarning oldini olish maqsadida haqiqiy huquqqa ega bo'lgan shaxs mezonini amaliyotda izchil qo'llashi maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasining ikki tomonlama soliq shartnomalari tizimi. O'zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab xorijiy davlatlar bilan ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish to'g'risidagi xalqaro shartnomalarni faol ravishda tuzib kelmoqda. Quyidagi jadvalda O'zbekiston tomonidan tuzilgan ayrim asosiy bitimlar keltirilgan.



Hamkor davlat	Imzolangan sana	Kuchga kirgan / holati	Manba
Rossiya Federatsiyasi	1994-yil 2-mart	Kuchda	Lex.uz
Xitoy Xalq Respublikasi	1996-yil 3-iyul	Kuchda	Lex.uz
Turkiya Respublikasi	1996-yil 8-may	Kuchda	Lex.uz
Buyuk Britaniya	1993-yil 15-oktabr	Kuchda	UK Legislation
Estoniya Respublikasi	2013-yil 7-martda tasdiqlangan	Kuchda	[12]
Qatar Davlati	2023-yil 6-iyun	2024-yil 12-fevralda kuchga kirgan	[13]
Birlashgan Arab Amirliklari	—	Kuchda	Lex.uz
Isroil Davlati	1998-yil 14-sentabr	2000-yil 31-dekabrda kuchga kirgan	Lex.uz

Tadqiqotda ko'rib chiqilgan ikki tomonlama soliq shartnomalarining kumulyativ soni

1-rasm. Tadqiqotda ko'rib chiqilgan ikki tomonlama soliq shartnomalarining kumulyativ soni⁷

Jadval va rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zbekiston yirik savdo-iqtisodiy hamkorlari, jumladan, Rossiya, Xitoy, Turkiya va Buyuk Britaniya bilan **1990-yillarning** boshidayoq ikki tomonlama soliq shartnomalarini tuzgan. So'nggi yillarda esa Yaqin Sharq davlatlari, xususan, Qatar va Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlik yangi bitimlar orqali izchil mustahkamlanmoqda. Mazkur tendensiya mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarini diversifikatsiya qilish siyosatiga mos keladi.

O'zbekistonda xalqaro soliq shartnomalarini qo'llash amaliyoti. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 6-moddasiga ko'ra, agar O'zbekiston ishtirokchisi bo'lgan xalqaro shartnomada milliy soliq qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari ustunlik qiladi. Shu bilan birga, mazkur modda daromadga nisbatan haqiqiy huquqqa ega bo'lgan shaxsni aniqlash mezonlarini ham belgilaydi. Bunday shaxs deb daromaddan mustaqil foydalanish yoki uni tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan, shuningdek, tegishli vazifa va tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga olgan shaxs e'tirof etiladi. Soliq kodeksining 357-moddasida xalqaro shartnomalar bo'yicha soliqlardan ozod qilish yoki pasaytirilgan stavkalarni qo'llash tartibi, shu jumladan, vositachi orqali to'lanadigan daromadlarga nisbatan haqiqiy oluvchini aniqlash qoidalari belgilangan. Soliq kodeksining 358-moddasi esa soliq rezidentligini tasdiqlovchi hujjatlarga qo'yiladigan talablarni tartibga soladi [9].

Amaliyotda, agar chet el kompaniyasi O'zbekistonda faoliyat yurituvchi soliq agentiga daromad to'lanishidan kechiktirmay, o'z rezidentlik davlati vakolatli organi tomonidan berilgan hamda konsullik legalizatsiyasi yoki apostil qo'yilgan (yoki xalqaro shartnoma bilan bunday talab bekor qilingan) rezidentlik to'g'risidagi hujjatni taqdim etsa, daromad to'lov manbaida xalqaro shartnomada nazarda tutilgan pasaytirilgan stavka bo'yicha

⁶ Manba: Lex.uz va tegishli xorijiy rasmiy manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁷ Manba: 2-jadval asosida muallif tomonidan tuzilgan.



soliqqa tortiladi. Aks holda soliq milliy qonunchilikda belgilangan umumiy stavka bo'yicha ushlab qolinadi. Ortiqcha ushlab qolingan summa esa Soliq kodeksining 12-bobida belgilangan tartibda norezidentga qaytarib beriladi [9].

Sud amaliyoti. Xorijiy davlatlar, xususan, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar amaliyotida haqiqiy huquqqa egalik va shartnomalardan noqonuniy foydalanish masalalari bo'yicha keng qamrovli sud amaliyoti shakllangan. Bunga misol tariqasida **2019-yil fevral oyida** Yevropa Ittifoqi Adliya sudi tomonidan qabul qilingan hamda xalqaro huquqshunoslikda **Danish Cases** nomi bilan mashhur bo'lgan bir qator qarorlarni keltirish mumkin. Mazkur ishlarda sud ilk bor haqiqiy huquqqa ega shaxs tushunchasini avtonom xalqaro-huquqiy tushuncha sifatida talqin qilgan hamda sof vositachi (konduit) kompaniyalar orqali amalga oshirilgan dividend va foiz to'lovlariga nisbatan shartnoma hamda direktiva imtiyozlarini qo'llashni rad etgan. Shuningdek, huquqni suiiste'mol qilish prinsipi yozilmagan umumiy xalqaro-huquqiy qoida sifatida e'tirof etilgan [7].

O'zbekiston sud amaliyotida esa, xalqaro soliq shartnomalarini qo'llash, xususan, haqiqiy huquqqa egalikni aniqlash yoki shartnomalardan noqonuniy foydalanishga oid ishlar bo'yicha ochiq manbalarda keng yoritilgan va tizimlashtirilgan sud pretsedentlari hozircha deyarli uchramaydi. Bu holat, bir tomondan, xalqaro soliq nizolarining O'zbekistonda nisbatan kam uchrashi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, sud va ma'muriy amaliyotning yetarli darajada ochiq e'lon qilinmaganligi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Mazkur holat milliy amaliyotda huquqiy bashoratlilikni yanada mustahkamlashni talab etuvchi jihatlardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Aniqlangan muammolar. O'tkazilgan tahlil natijasida quyidagi jihatlar aniqlandi. Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi xalqaro shartnomalar tarmog'i shartnomalardan noqonuniy foydalanish tavakkalchiligi nuqtai nazaridan hali tizimli ravishda tahlil qilinmagan. Xorijiy tadqiqotlarda tavsiya etilgan uslubiyotlar asosida bunday baholashning mavjud emasligi ehtimoliy soliq yo'qotishlarini oldindan baholash imkoniyatlarini cheklaydi [5]. Ikkinchidan, ayrim yirik savdo-iqtisodiy hamkor davlatlar bilan hali ikki tomonlama soliq shartnomalari tuzilmagan, bu esa norezidentlarning ayrim daromad turlari bo'yicha qo'shimcha soliq yukiga duch kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Uchinchidan, haqiqiy huquqqa ega shaxsni aniqlashning aniq mezonlari hamda isbotlash yukining taqsimoti amaliyotda yetarli darajada ravshan emas. Bu holat soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasida mazkur normalarni talqin qilishda ayrim tafovutlarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. To'rtinchidan, xalqaro soliq nizolarini hal etish bo'yicha ochiq sud va ma'muriy amaliyotning cheklanganligi huquqiy bashoratlilikni yanada rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi. Beshinchidan, soliq organlari xodimlarining transfer narxlash hamda xalqaro soliq shartnomalarini qo'llash bo'yicha ixtisoslashgan malakasini izchil oshirib borish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olishning xalqaro-huquqiy asoslari xalqaro andozaviy konvensiyalar yondashuvlari hamda ularga asoslangan ikki tomonlama shartnomalar orqali izchil rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida keng qamrovli shartnomalar tarmog'ini shakllantirgan bo'lsa-da, uni xorijiy ilmiy tadqiqotlarda tavsiflangan zamonaviy tahlil usullariga, xususan, shartnomalardan noqonuniy foydalanish tavakkalchiligini baholash metodologiyasiga yanada muvofiqlashtirish bo'yicha qo'shimcha ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 6-, 357- va 358-moddalarida mustahkamlangan xalqaro shartnomalarni qo'llash tartibi hamda haqiqiy huquqqa ega bo'lgan shaxsni aniqlash mezonlari, umuman olganda, xalqaro amaliyotga mos keladi. Biroq ularning amaliy qo'llanilishida ravshanlik va yagona yondashuvni ta'minlash, shuningdek, xalqaro shartnomalar tarmog'ini yanada kengaytirish milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda soliq nizolarining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi yakuniy tavsiyalar shakllantirildi:

- mavjud shartnomalar tarmog'ini shartnomalardan noqonuniy foydalanish tavakkalchiligi nuqtai nazaridan tizimli baholashni yo'lga qo'yish;
- ikki tomonlama soliq shartnomalari tarmog'ini yangi strategik hamkor davlatlar hisobiga kengaytirish;
- haqiqiy huquqqa ega bo'lgan shaxsni aniqlash mezonlarini normativ-huquqiy hujjatlarda yanada aniqlashtirish;
- soliq rezidentligini tasdiqlash hamda shartnoma imtiyozlarini qo'llash tartiblarini raqamlashtirish orqali soddalashtirish;
- o'zaro kelishuv tartib-taomili (**MAP**) amaliyotini rivojlantirish va uning shaffofligini yanada oshirish;
- soliq organlari xodimlarining xalqaro soliq huquqi bo'yicha malakasini muntazam ravishda oshirib borish.



Xulosa qilib aytganda, ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishning xalqaro-huquqiy mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF–5468-son⁸ Farmonida belgilangan ustuvor yo'nalishlarning mantiqiy davomi sifatida mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jaligi tizimiga yanada chuqur integratsiyalashuviga, investitsiya muhitini yanada yaxshilashga hamda soliq to'lovchilar huquqlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi [11].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shome, P. (2021). *Double Taxation Avoidance Agreements*. In *Taxation History, Theory, Law and Administration*. Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-030-68214-9_27
2. United Nations. (1969). *Vienna Convention on the Law of Treaties*. *United Nations Treaty Series*, 1155, 331. https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/1_1_1969.pdf
3. Neumayer, E. (2007). Do double taxation treaties increase foreign direct investment to developing countries? *Journal of Development Studies*, 43(8), 1501–1519. <https://doi.org/10.1080/00220380701611535>
4. Shehaj, P., & Zagler, M. (2025). Asymmetric double tax treaties: Relief method and tax sparing for foreign direct investment in developing countries. *Public Finance Review*, 53(1), 94–135. <https://doi.org/10.1177/10911421241247241>
5. van 't Riet, M., & Lejour, A. (2025). Developing countries, tax treaty shopping and the global minimum tax. *Public Finance Review*. <https://doi.org/10.1177/10911421251334849>
6. Li, J. (2012). *Beneficial ownership in tax treaties: Judicial interpretation and the case for clarity* (Comparative Research in Law & Political Economy Research Paper No. 4/2012). Osgoode Hall Law School. <https://digitalcommons.osgoode.yorku.ca/clpe/4>
7. Wheeler, J. (2013). Persons qualifying for treaty benefits. In *Papers on Selected Topics in Administration of Tax Treaties for Developing Countries*. United Nations, Department of Economic and Social Affairs. https://www.un.org/esa/ffd/wp-content/uploads/2013/05/20130530_Paper2A_Wheeler.pdf
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-apreldagi yangi tahriri). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-6445145>
9. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (2026-yil holatiga amaldagi tahriri). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-4674902>
10. O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ–518 (2019-yil 6-fevral). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-4193761>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF–5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-3802378>
12. O'zbekiston Respublikasi va Estoniya Respublikasi o'rtasidagi ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish to'g'risidagi Konvensiya (PQ–1932-son qaror bilan tasdiqlangan, 2013-yil 7-mart). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-2412638>
13. O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Qatar Davlati Hukumati o'rtasidagi daromad soliqlari bo'yicha ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish to'g'risidagi Bitim (2023-yil 6-iyun). Lex.uz. <https://lex.uz/en/docs/6803687>
14. Jo'rayev, A. (2004). *Soliq qonunchiligi asoslari*. Toshkent. <https://sektor-api.argos.uz/>

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF–5468-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-3802378>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>